O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

2023 - yil «9» mart 48-son Toshkent shahri

**Talaba va yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish to'g'risida**

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan ma'naviy-marifiy, ilmiy-innovatsion, sport va ko'ngilochar tadbirlarini tashkil etish, bu boradagi ishlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Barcha oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-marifiy, ilmiy-innovatsion, sport va ko'ngilochar tadbirlarni tizimli tashkil etish choralari ko'rilsin.

2. Ma'naviy-marifiy, ilmiy-innovatsion hamda sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi (keyingi o'rinlarda – Chora-tadbirlar rejasi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oliy ta'lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

4. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasidagi xarajatlar oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda amalga oshirishga rozilik berilsin.

5. Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari bir hafta muddatda Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, moliyalashtirish tartiblarini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash choralarini ko'rsin.

6. Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N. Kasimov) ikki hafta muddatda Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni tegishliligi bo'yicha respublika bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish choralarini ko'rsin.

7. Yoshlar siyosati, ijtimoiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi (S. Sanakulov) Chora-tadbirlar rejasida belgilangan ta'lim va o'quv targ'ibotlari, ma'naviy-marifiy, sport va ko'ngilochar tadbirlarni, Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (A. Sobirxonov) ilmiy va innovatsion tadbirlarini tashkil etilishini muvofiqlashtirib borilishini ta'minlasin.

8. Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N. Kasimov) Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlasin.

9. Axborot xizmati (N. Abduqunduzova) Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda doimiy yoritib borish choralarini ko'rsin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S. Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **I. Abduraxmonov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DEVONXONA

ASLIGA TO'G'RI

## Talaba va yoshlarning vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy-innovatsion, ma'naviy-marifiy, sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar

## REJASI

| T/r | Takliflar | Amalga oshirish mexanizmi | Muddati | Mas'ullar |
|---|---|---|---|---|
| **Ilmiy va innovatsion tadbirlar** | | | | |
| 1. | **"Bo'lajak olim"** tanlovini o'tkazish va ilmiy g'oyalar, loyihalar va startaplarini moliyalashtirish. | 1. Oliy ta'lim muassasalarida "Bo'lajak olim" tanlovi targ'ibotini olib borish;<br>2. "Bo'lajak olim" tanlovini e'lon qilish va loyihalarni qabul qilish;<br>3. Kelib tushgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish;<br>4. Tanlovda g'olib bo'lgan loyihalarga pul mablag'larini ajratish. | 2023-yil mart-aprel<br>2023-yil may-iyun<br>2023-yil noyabr<br>2023-yil dekabr | N.Kasimov,<br>A.Sobirxonov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 2. | **"Akademik harakatchanlik"** dasturini ishga tushirish. | 1. Oliy ta'lim muassasalarida "Akademik harakatchanlik" dasturi targ'ibotini olib borish;<br>2. "Akademik harakatchanlik" dasturini e'lon qilish va arizalarni qabul qilish;<br>3. Dasturga kelib tushgan arizalarni ekspertizadan o'tkazish;<br>4. Dastur g'oliblariga pul mablag'larini ajratish. | 2023-yil mart-aprel<br>2023-yil may-iyun<br>2023-yil sentyabr<br>2023-yil dekabr | N.Kasimov,<br>A.Sobirxonov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 3. | Talaba-yoshlarning ilmiy, innovatsion va startap loyihalarini rivojlantirish va rag'batlantirish maqsadida **"TechnoWays" texnologik rivojlanish marafonini** tashkil etish. | 1. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "TechnoWays" texnologik rivojlanish marafoni targ'ibotini olib borish;<br>1. **"TechnoWays" texnologik rivojlanish marafoninining** konsepsiyasi va Nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Har bir oliy ta'lim muassasalarida "TechnoWays" texnologik rivojlanish marafonini tashkil etish; | 2023-yil mart<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil may | N.Kasimov,<br>A.Sobirxonov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. “TechnoWays” texnologik rivojlanish marafonining g‘oliblarini oliy ta’lim muassasalari mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish;<br>4. G‘oliblarni “TechnoWays” texnologik rivojlanish marafonining hududiy va Respublika bosqichiga jalb etish. | 2023-yil avgust-dekabr | |
| 4. | **“Ayollar biznesiga birinchi qadam”** tanlovini tashkil etish. | 1. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi xotin-qizlar o‘rtasida “Ayollar biznesiga birinchi qadam” tanlovi targ‘ibotini olib borish;<br>2. “Ayollar biznesiga birinchi qadam” tanlovini e’lon qilish va loyihalarni qabul qilish;<br>3. Kelib tushgan loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish;<br>4. Tanlovda g‘olib bo‘lgan loyihalarga pul mablag‘larini ajratish. | 2023-yil mart-may<br>2023-yil iyun-avgust<br>2023-yil noyabr<br>2023-yil dekabr | N.Kasimov, A.Sobirxonov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 5. | **“Mirzo Ulug‘bek vorislari”** Respublika tanlovini tashkil qilish. | 1. “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining birinchi bosqichini tashkil etish;<br>2. “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining ikkinchi bosqichini tashkil etish;<br>3. “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining Respublika bosqichini tashkil etish;<br>4. “Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining Respublika bosqichi g‘oliblarini maqsadli o‘quv kurslarida o‘qitish. | 2023-yil mart<br>2023-yil aprel<br>2023-yil may<br>2023-yil avgust | N.Kasimov, A.Sobirxonov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 6. | Oliy ta’lim muassasalarining iqtidorli talaba yoshlari ishtirokida **“Yoshlar Orolni asraydi”** aksiyasini o‘tkazish. | 1. Har bir oliy ta’lim muassasasidan 20 nafardan iqtidorli talaba yoshlar ro‘yxati shakllantiriladi;<br>2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida aksiyani o‘tkazishga tayyorgarlik olib borish va oliy ta’lim muassasalarini aksiyada ishtirok etish grafigini shakllantirish;<br>3. Aksiyasida talabalarni ishtirok etishi bilan bog‘liq xarajatlarni oliy ta’lim muassasalari mablag‘lari hisobidan amalga oshirish; | 2023-yil mart<br>2023-yil Mart<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil | N.Kasimov, A.Sobirxonov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 4. Aksiya doirasida ekskursiya, loyihalar muhokamalari, seminarlar, ko‘chat ekish tadbirlarini tashkil etish. | aprel-may | |
| 7. | Oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli talaba yoshlari ishtirokida **“Intellektual haftalik”** tadbirini o‘tkazish. | 1. **“Intellektual haftalik”** tadbirinining konsepsiyasi va Nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>1. Har bir oliy ta'lim muassasasida **“Intellektual haftalik”** tadbirlari tashkil etish uchun tayyorgarlik olib borish;<br>2. **Haftalik** doirasida ilmiy konferensiyalar, seminarlar, soha yetakchilari bilan uchrashuvlar hamda **“Rektor kubogi”** uchun Zakovat o‘yinlari tashkil qilish;<br>3. Haftalikni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshirish. | 2023-yil Mart<br>2023-yil aprel<br>2023-yil aprel | N.Kasimov, A.Sobirxonov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 8. | Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi iqtidorli yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida “Start4Region” startap loyihalar tanlovi o‘tkazilsin. | 1. Oliy ta'lim muassasalarida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;<br>2. “Bo‘lajak olim” tanlovi doirasida “Start4Region” startap loyihalar tanlovi e'lonini berish.<br>3. Tanlovga kelib tushgan arizalarni qabul qilish;<br>4. Tanlovga kelib tushgan loyihalarni o‘rnatilgan tartibda ekpertizadan o‘tkazish;<br>5. Tanlovda g‘olib bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish. | 2023-yil mart<br>2023-yil aprel<br>2023-yil iyun<br>2023-yil noyabr<br>2023-yil dekabr | N.Kasimov, A.Sobirxonov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| **Ta'lim va o‘quv targ‘ibotlariga yo‘naltirilgan tadbirlari** | | | | |
| 9. | Tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, asrab-avaylash, mavjud ekologik muammolarni keng yoritishga qaratilgan **“Eng buyuk meros”** mavzusida maqolalar tanlovini tashkil etish. | 1. “Eng buyuk meros” tanlovi nizomini ishlab chiqish;<br>2. “Eng buyuk meros” tanlovini e'lon qilish va o‘tkazish; | 2023-yil mart<br>2023-yil mart-aprel<br>2023-yil may-iyun | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Sport va sog'lomlashtirish tadbirlari** | | | | |
| 10. | Milliy kurash bo'yicha Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida **"Vazir kubogi"** turnirini o'tkazish. | 1. Milliy kurash bo'yicha "Vazir kubogi" turnirining nizomini ishlab chiqish;<br>2. Nizomda belgilangan muddatlarda turnirni tashkil etish;<br>3. G'oliblarni tantanali ravishda taqdirlash. | 2023-yil mart<br>2023-yil mart-aprel<br>2023-yil mart-aprel | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 11. | Sportning stol tennisi, shashka, shaxmat, voleybol, badminton turlari bo'yicha **"Rektor kubogi"** va professional ta'lim muassasalarida **"Direktor kubogi"** musobaqalar tashkil etish. | 1.Oliy ta'lim muassasasi tomonidan Talabalar o'rtasidagi turli sport turlari bo'yicha musobaqalarning dasturini ishlab chiqish;<br>2. Oliy ta'lim muassasalarining barcha talabalarini mazkur tadbirlarga jalb qilish; | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br>2023-yil mart-aprel, may | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 12. | Sport turlari bo'yicha olimpiada, jahon, respublika bosqichi g'oliblari ishtirokida **master klasslar** o'tkazish. | 1. Yoshlar siyosati va sport vazirligi bilan kelishilgan holda sport turlari bo'yicha olimpiada, jahon, respublika bosqichi g'oliblari ro'yxatini shakllantirish;<br>2. Ta'lim muassasalariga master klasslar o'tkazish uchun g'oliblarini biriktirib chiqilgan tadbirlar grafik jadvalini ishlab chiqib, tasdiqlash;<br>3. Tasdiqlangan grafik jadvalga asosan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish; | 2023-yil 10-mart<br>2023-yil 20-mart<br>2023-yil mart-aprel, may | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| **Ko'ngilochar tadbirlar** | | | | |
| 13. | **"Talaba Fest"** madaniy konsert dasturini tashkil etish. | 1. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan "Talaba Fest" madaniy konsert dasturini o'tkazish konsepsiyasini ishlab chiqish;<br>2. Talabalar musiqa jamoalarini shakllantirish;<br>3. Tadbirlarni yuqori badiiy saviyada o'tkazish; | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br>2023-yil | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 6. Tadbirlarni oliy ta'lim muassasasining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish. | mart-aprel, may | |
| 14. | Talabalarning teatr san'atiga bulgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida **"Talabalar teatr kunlari"**ni tashkil etish va uning doirasida talabalarni teatrlarga tashriflarini yulga quyish, taniqli teatr aktyorlari bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazish. | 1. Oliy ta'lim muassasalarining Teatr kunlarini o'tkazish buyicha reja-jadval loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Namoyish etiladigan spektakllar repertuarini shakllantirish;<br>3. Reja-jadvalga asosan spektakllar namoyishini tashkil etish. | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br>2023-yil mart-aprel-iyun | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 15. | Talabalarni tarixiy qadamjolar, davlat qo'riqxonalari va muzeylarga turistik sayohatlarini tashkil qilish maqsadida **"Talaba-TUR"** loyihasini amalga oshirish. | 1. Oliy ta'lim muassasalarining **"Talaba-TUR"** loyihasini amalga oshirish bo'yicha reja-jadval loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Reja-jadvalga asosan oliy talim muassasasi joylashgan hududlaridagi turistik sayohat marshrutlarini shakllantirish va ekskursiyalarni tashkil etish;<br>3. Turistik sayohatlarni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish. | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br>2023-yil mart-aprel, may | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 16. | Talabalardan tashkil topgan jamoalar o'rtasida **"Quvnoqlar va zukkolar"** tanlovini o'tkazish. | 1 Oliy ta'lim muassasasida tashkil etiladigan **"Quvnoqlar va zukkolar"** tanlovi konsepsiyasi va nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. **"Quvnoqlar va zukkolar"** tanlovining fakultetlararo bosqichini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash; | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br>2023-yil aprel<br>2023-yil may | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 17. | Talabalarning musiqa, raqs, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishidagi iste'dodlarini ruyobga chiqarish hamda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan **"Talabalar bahori"** festivalini o'tkazish. | 1. Oliy ta'lim muassasasining festival konsepsiyasi va nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Festivalning fakultetlararo bosqichini o'tkazish;<br>3. Festivalda g'olib bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalarini oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish; | 2023-yil aprel<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil iyun | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 18. | Talabalarning shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodini chuqur o‘rganishi, adabiyotga qiziqishini yanada oshirish maqsadida Toshkent shahridagi Adiblar Xiyobonida **“Mushoira Fest”** adabiyotshunoslik festivalini o‘tkazish. | 1. Oliy ta’lim muassasasi tomonidan tadbir konsepsiyasi va nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Adabiyotshunoslik festivalini yuqori saviyada o‘tkazish;<br>3. Tadbirni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish. | 2023-yil aprel<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil may | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 19. | Talabalar turar joylarida mashhur instagram yulduzlari, tiktokerlar hamda vaynerlar ishtirokida **“Talabalar oqshomi”** konsert dasturini tashkil etish. | 1. Instagram yulduzlari, tiktokerlar hamda vaynerlar ro‘yxatini shakllantirish;<br>2. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan tadbirning dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>3. Talabalar turar joylarida madaniy konsert dasturlarini o‘tkazish grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>4. Tadbirlarni yuqori badiiy saviyada o‘tkazish. | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br>2023-yil mart-aprel, may | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 20. | Oliy talim muassasalarining talabalari o‘rtasida **“Osh chempionati”** tadbirini o‘tkazish. | 1. Oliy ta’lim muassasalari tomonidan tadbirning dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Tadbirni yuqori saviyada va keng qamrovli tashkil etish;<br>3. Chempionatda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilarni oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish. | 2023-yil mart-aprel, may | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| | | **Ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot ishlari** | | |
| 21. | **“Amaliy san’at ustasi”** ko‘rik tanlovini tashkil etish. | 1. Oliy ta’lim muassasasida ko‘rik tanlovni o‘tkazish bo‘yicha nizom ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Tanlov to‘g‘risida talaba-yoshlarni xabardor qilish;<br>3. Tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada va keng qamrovli tashkil etish; | 2023-yil aprel<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil may<br>2023-yil iyun | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 4. Ko‘rik tanlovda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilarni oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish. | | |
| 22. | Ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etayotgan talaba yoshlarni aniqlash maqsadida **Heshteg tanlovini** o‘tkazish. | 1. Navro‘z bayrami munosabati bilan #navro‘z_muborak heshtegini o‘tkazish;<br>2. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 629-yilligi munosabati bilan #mirzo_ulug‘bek_vorislari heshtegini o‘tkazish;<br>3. Amir Temur tavalludining 687-yilligi munosabati bilan #amir_temur_izdoshlari heshtegini o‘tkazish;<br>3. Heshteglar tanlovining eng faol ishtirokchilarini aniqlash va oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish. | 2023-yil mart<br>2023-yil mart<br><br>2023-yil aprel<br>2023-yil may | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 23. | **“Eng yaxshi notiq talaba”** tanlovini tashkil etish. | 1. Oliy ta’lim muassasasi tomonidan tanlov nizomini ishlab chiqish;<br>2. Tanlov to‘g‘risida talaba-yoshlarni xabardor qilish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda doimiy reklamalarni tashkil etish;<br>3. Tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada va keng qamrovli tashkil etish;<br>4. G‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchini oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirish. | 2023-yil aprel<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil may<br>2023-yil iyun | N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 24. | **“Havaskor gitara ishqibozlari”** tanlovini tashkil etish. | 1. Oliy ta’lim muassasasi tomonidan tanlov nizomini ishlab chiqish;<br>2. Tanlov to‘g‘risida talaba-yoshlarni xabardor qilish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda doimiy reklamalarni tashkil etish;<br>3. Tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada va keng qamrovli tashkil etish; | 2023-yil aprel<br>2023-yil aprel-may<br>2023-yil may<br>2023-yil iyun<br>2023-yil iyun | O N.Kasimov, S.Sanakulov<br>Oliy ta’lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 25. | **“Mening universitetim”** nomli **mobilografiya** tanlovini tashkil etish. | 1. Oliy ta’lim muassasasi tomonidan tanlov nizomini ishlab chiqish; | 2023-yil mart<br>2023-yil | N.Kasimov, S.Sanakulov |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Mobilografiya haqida tushunchalar beruvchi targ'ibot roliklari tayyorlash va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish;<br>3. Tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada va keng qamrovli tashkil etish;<br>5. Tanlov jarayonlari va natijalarini ijtimoiy tarmoqlarda yoritish;<br>6. Tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarni oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish. | mart-aprel<br>2023-yil<br>aprel<br>2023-yil<br>aprel-may<br>2023-yil<br>iyun<br>2023-yil<br>iyul | Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 26. | Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan "**Maqom, lapar, o'lan va askiya aytishuvlari**" tanlovini tashkil etish. | 1. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan tanlov nizomini ishlab chiqish;<br>2. Tanlov to'g'risida talaba-yoshlarni xabardor qilish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlarda doimiy reklamalarni tashkil etish;<br>3. Tanlovning barcha bosqichlarini yuqori saviyada va keng qamrovli tashkil etish;<br>4. Taqdirlash marosimini yuqori saviyada tashkil etish. | 2023-yil<br>mart<br>2023-yil<br>mart-aprel<br>2023-yil<br>aprel<br>2023-yil<br>aprel-may | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 27. | "**Kibersport**" musobaqalarini tashkil etish. | 1. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan musobaqa nizomini ishlab chiqish;<br>2. Musobaqani o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish;<br>3. Musobaqani o'tkazish va g'oliblarni munosib oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish. | 2023-yil<br>aprel<br>2023-yil<br>aprel-may<br>2023-yil may | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |
| 28. | "**Zakovat Quiz**" intellektual ko'ngilochar musobaqalarini tashkil etish. | 1. Oliy ta'lim muassasasi tomonidan Intellektual o'yin konsepsiyasini ishlab chiqish;<br>2. "Zakovat Quiz" savollari bazasini shakllantirish;<br>3. Musobaqani tashkil etish va g'oliblarni oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish. | 2023-yil<br>aprel<br>2023-yil<br>aprel-may<br>2023-yil may | N.Kasimov,<br>S.Sanakulov<br>Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari |